
Dastlabki eshituv bosqichi haqida nimalar bilamiz?

Dastlabki eshituv bosqichi haqida nimalar bilamiz?

Dastlabki eshituv — surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyati ustidan bevosita tortishuv printsipli asosida amalga oshiriladigan protsessual jarayon bo`lib, bunda sud muhokamasiga qo`yilgan masalalar, hamda ish yuzasidan to`plangan dalillar majmuasi yetarliligi va maqbulligi o`rganiladi. Jinoyat-protsessida dastlabki eshituv tergov va surishtiruv organlarining hatti-harakatlari qonunga muvofiqligi yuzasidan bevosita sud nazorati hisoblanadi.

Dastlabki eshituv instituti joriy etilishi sud hokimiyatining vakolatlarini kengaytirishga hamda taraflarning tortishuvlik tamoyilini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dastlabki eshituvning sud uchun qanday afzalliklari va ijobiy ta`siri bor? Ta`kidlash zarurki, jinoyat ishini sudda har tomonlama va xolisona ko`rilishiga to`sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etish mas`uliyati sudbyaning zimmasida bo`lsada, lekin uni amalga oshirish uchun real vakolati yo`qligi sababli jinoyat ishining nuqsonlarini ko`ra bila turib sud muhokamasiga “o`tkazish” majburiyatidan ozod bo`ladi.

Dastlabki eshituv instituti AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Rossiya, hamda Ispaniya, Italiya davlatlar sud amaliyotida joriy etilgan. Mazkur davlatlarda o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lsa-da, sud muhokamasida jinoyat ishni mazmunan ko`rishga to`sqinlik qiluvchi holatlar mavjudligini aniqlash, sud muhokamasi jarayonida faqat qonun bilan yo`l qo`yilgan dalillarni ishlatish uchun sharoit yaratish, jinoyat ishini kelgusida sud muhokamasida ko`rish uchun sud tarkibini va sud jarayonini sudlanuvchining ishtirokisiz ko`rish imkoniyati mavjudligini aniqlash dastlabki eshituv institutining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Hozirgi jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash sudbya tomonidan 7 kun ichida amalga oshirilishi belgilangan bo`lib, ish mazkur sudning sudloviga tegishlilik, ishni tugatish yoki to`xtatishga sabab bo`ladigan holatlar mavjudligi, ishning sud majlisida ko`rilishi uchun asoslar yetarliligi, surishtiruv va dastlabki tergov o`tkazish chog`ida qonun talabiga rioya etilganligi, ayblanuvchiga ehtiyot chorasi to`g`ri tanlanganligi, jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy zararni qoplanishini ta`minlash choralari ko`rilganligi, ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi qonun talablariga muvofiq tuzilganligi kabi masalalar aniqlanishi lozim.

Ushbu muhim masalalar sud tomonidan yakka tartibda prokuror, jabrlanuvchi, ayblanuvchi, himoyachi va boshqa ishtirokchilar jalb qilinmagan holda amalga oshiriladi. Ushbu jarayon taraflar ishtirokida tortishuvlik sharoitida amalga oshirilsa, taraflarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni yangi bosqichga chiqaradi.

Demak, dastlabki eshituv joriy etilishi sudning protsessual vakolatlarini mustahkamlash va yanada kengaytirishga, natijada esa, sud, dastlabki tergov organlari hamda fuqarolarning vaqti va sa`i harakatlarining tejalishi, jinoyat ishlari yurituviga jalb etilgan shaxslarning buzilgan huquqlari tez fursatda tiklanishini ta`minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining sudyasi

N.Salomov